



**FERMER XO'JALIGI YERLARINING SHO'RLANGANLIK
KARTASINI TUZISH VA UNING ASOSIDA SHO'R
YUVISHNI REJALASHTIRISH**

A.Rahmonov

O.Yusupova

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti 2-bosqich talabalari.

N.O. Xodjayeva

Organik dehqonchilik va o'rmon melioratsiyasi kafedrasida assistenti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda nafaqat yurtimizdagi, balki butun dunyoda tuproqlarning sho'rlanish sabablari ularni yomonlashuvidan oldin aniqlash, meliorativ holati yomonlashuvining oldini olish va bartaraf etish yo'llari haqida ma'lumotlar yoritib beriladi.

Kalit so'zi: sho'rlanish, qonun, sizot suvlari, agromeliorativ tadbir, sho'r yuvish, kam sho'rlangan yillar.

Respublikamiz sug'oriladigan yerlari uning 60-65%tabiiy sho'rlanishiga moyil yerlar hisoblanadi. Chunki, bunday yerlarda madaniylashgan sizot suvlari yer yuzasiga yaqin joylashgan bo'lib ular doimo bug'lanishga sarflanadi va oqibatda tuzlar yer yuzasida to'planib qoladi. Shuning uchun sho'rlangan yerlarni har yili sho'rini yuvish mutlaqo zaruriy agromeliorativ tadbir hisoblanadi. Sho'r yuvishning vazifasi qishloq xo'jalik ekinlarining o'sishi rivojlanishi va mo'l hosil berishi uchun zararli bo'lgan ortiqcha tuzlarni tuproqdan yuvish ham sizot suvlarining madaniylashganligini kamaytirishdir.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 17-iyun 2019-yildagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PF-5742-sonli farmonida hozirgi kunda 20 mln gektardan ortiq, shu

jumladan 3.2 mln gektar sug'oriladigan ekin yer maydonlaridan foydalanib, aholining ehtiyoji uchun oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur xom-ashyo yetishtirilmoqda. Sug'oriladigan maydonlarning unumdorligini oshirish meliorativ holati va suv ta'minotini yaxshilash maqsadida davlat dasturlari doirasida keng-ko'lamli irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari amalga oshirilmoqda. Natijada 2008-2017 yillar mobaynida 1.7 mln gektardan ortiq sug'oriladigan maydonlarning suv ta'minoti hamda 2.5 mln gektar maydonlarning meliorativ holatining yaxshilanishiga erishildi.[1]

O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 11-dekabrda PQ-4919 sonli qarori ijrosini ta'minlash hamda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda yerlarning sho'rini yuvish meliorativ holatini yaxshilash, undan foydalanish samaradorligini oshirish, bu boradagi ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va ilmiy ishlarini amaliyotga joriy qilish hamda sho'r yuvish ishlarini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qildi. [2]

Tabiiyki, sho'rlangan yerlarda qishloq xo'jalik ekinlaridan mahsulot olish uchun, ularga meyoridan 2-3 hissa ortiq sug'orish talab qilinadi aks holda bu yerda mo'ljallangan hosilning 70-80% gacha nobud bo'lishi turgan gap. I.Ergashev, N.Godayev [3] lar fikriga ko'ra, tuproqlarni sho'rlanishi minerallashtirilgan sizot suvlari rejimiga uzviy bog'liqdir. Sug'orish maydonlarida ularning rejimi o'z o'rnida sug'orish rejimi va qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish texnikasi bilan aniqlashga erishilgan. S.Husanov, A.Davronov, N.Jo'rayevlar [4.] ma'lumotiga qaraganda, sho'r tuproqlarda xlor ioni natriy xlorit, magniy xlorit va kalsiy xlorit tuzlari xlorida uchraydi. Tuproqda natriy xlorit tuzi ko'proq miqdorda bo'lishi bu tuzning 0.2 miqdori ham o'simlik uchun zararli hisoblanadi. Shuning uchun tajribalarimizda birinchi navbatda xlor ionlarining miqdorini aniqlashga qaratilgan laboratoriya analizlari olib borilgan. Olingan natijalarning ko'rsatishi tajriba dalasi tuproqlarida xlor ioni 0.317 mg ekv.ni tashkil qilgan. Sh.Aliqulova, A. Eshnazarov [5] lar fikricha, sug'oriladigan dehqonchilik tumanlarida tuproqlarning sho'rlanishi asosiy ekologik muammolardan hisoblanadi. Tuproqlarning sho'rlanishi sug'orishni

noto'g'ri olib borganda yer osti suvlari sohilning ko'tarilishi natijasida ro'y beradi. Tuproq tarkibini organik moddalar bilan boyitish almashilab ekish tizimni yo'lga qo'yish, tuproqni meliorativ holatini yaxshilash, sug'orishda innovatsiya texnologiyalardan foydalanishga erishilgan. F. Abdullayev, Sh.Abdualimov [6] lar fikriga ko'ra, Jizzax viloyatining o'tloqi bo'z sho'rlangan tuproqlari sharoitida g'o'zadan ertaki va yuqori paxta hosili yetishtirish uchun uzguma stimulyator bilan chigitga ekish oldidan 0.7-0.8 litr me'yorida ishlov berish, g'o'zaning shovlash davrida 0.3 litrga gullash davrida 0.4 litrga qo'llashga erishilgan. Respublikamizdagi mavjud sug'oriladigan yer maydonlarining qariyb 2.1 mln gektari yoki 49% turli darajada sho'rlangan bo'lib shundan 30% kuchli 15% o'rta va 31% kam sho'rlangan yerlardir. Ayniqsa yer osti suvlari sathining joylashish chuqurligi qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligiga keskin tasir qiladi. Sug'oriladigan yerlarning sizot suvlari chuqurligi bo'yicha maydonlarga bo'linishi 0-1.5 metrgacha 219.4 minga 1.5-2 metrgacha 694.4 minga, 2-3 metrgacha 1813.9 minga, 3 metrdan yuqori 1576.1 minga ya'ni tashkil qiladi.

Markaziy Osiyoda tuproqlar sho'rlanishiga qarshi qo'llaniladigan muhim agromeliorativ tadbir bu sho'ryuvishdir. Sho'ryuvishda tuproqning hisobiy qatlamidagi tuzlar chuqur qatlamlarga yuvib suv shirilladi va zovurlar orqali sizot suvlari bilan birgalikda tashqariga chiqarib yuboriladi.


Ekinlargdan mo'l hosil olish uchun u yoki bu darajada sho'rlangan barcha tuproqlar ekinni ekgunga qadar tuzlardan yuvilgan bo'lishi lozim.

Sho'r yuvish sifatini oshirishda quyidagi agrotexnik tadbirlar tuproqni sho'ryuvishga tayyorlash sifati, sho'r yuvish muddati va usullari, sho'ryuvish me'yorining ahamiyati kattadir. Yaxshi tekislangan va shudgor qilingan yerlarda sho'r yuvish samaradorligi yuqori boladi.

Haydov osti qatlamlari zichlangan tuproqlarni chuqur yumshatish suvni sho'r yuvish qobiliyatini ta'minlaydi. Sho'ryuvishni juda kech muddatlarda o'tkazish (fevral va mart oylarida) bu tadbirning ahamiyatini pasaytirib yuboradi.

O'zbekistonning ko'pchilik hududlarida sho'r yuvishni sizot suvlarining sathi

eng chuqurda va bug'lanish eng kam bo'lgan kuz va erta qish oylarida amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm



viloyati sho'ryuvish 01-10 dekabr va qo'shimcha ravishda fevral oxirida 01-10 aprelgacha Mirzacho'l va Farg'ona vil 25-31 dekabrgacha Buxoro, Surxondaryo va Qashqadaryo vil 15-20 yanvargacha o'tkazish yaxshi natijalarni beradi.

Kech qilish va erta bahor oylarida o'tkazilgan sho'ryuvish ekish davrida tuproq namligini yetarlisha bo'lishni ta'minlaydi. Sho'r yuvish ikki xil usulda amalga oshiriladi.

Kam sho'rlangan yerlar egatlar orqali, o'rtacha va kuchli sho'rlangan hamda sho'rxol yerlar esa cheklarga bo'lib bostirib yuviladi. Egatlar orqali sho'ryuvishda egatlar oraligi 60 sm chuqurligi 18-20 sm bo'lishligi maqsadga muvofiqdir

Xulosa qilib aytganda Respublikamiz sug'oriladigan yerlarning ko'p qismi sho'rlanishga moilligi sabab, ularni me'yoridan ortiq sug'orish, tuproqdagi xlor ionini normallashtirish, almashlab ekishni joriy etish, tuproq tarkibini organik moddalar bilan boyitish tuproqning sho'rlanishini oldini oladi.

Sho'rlanish ham ekologik muoammolardan biri bo'lib uni bartaraf etish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora tadbirlari to'g'risidagi" farmoni PF-5742 son
2. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 11-dekabrda PQ-4919 son.
3. I.Ergashev, N.Godayev "Sho'rlangan yerlardan foydalanish". Agro Ilm No5 2021 79-bet
4. S.Husanov, A.Davronov, N.Jo'rayeva "O'rtacha sho'rlangan tuproqlarning suvli so'rim tahlili natijalari .Agro Ilm No4 2022 60-bet
5. Sh.Aliqulova, A. Eshnazarov "Qishloq xo'jalik tuproqlarini sho'rlanishi tufayli kelib chiqadigan muammolar" Agro Ilm No2 2023 63-bet
6. F. Abdullayev, Sh.Abdualimov "Jizzax viloyatining sho'rlangan tuproqlari sharoitida uzgumi stimulyatsiyasining g'ozadagi samaradorligi" Agro Ilm No4 2023 86-87 bet
7. Z.A.Artukmetov, H.Sh.Sheraliyev "Ekinlarni sug'orish asoslari" Toshkent – 2007